

# **INSONNING MA’NAVIY KAMOLOTIDA ADABIYOTNING O’RNI**

*Boysinov Sohibjon Sobirovich (ilmiy rahbar),*

*Jizzax davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi*

*Axmatqulova Dilbar*

*Jizzax davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson ma’naviyatining yuksalishida kitobning o‘rni va yoshlar orasida kitobxonlikni yuksaltirish haqida mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** *inson ma’naviyati, adabiyot, badiiy so‘z qudrati, kitobxonlik.*

**Аннотация.** В этой статье обсуждается роль книг в развитии духовности человека и поощрении чтения среди молодежи.

**Ключевые слова:** человеческая духовность, литература, сила художественного выражения, чтение.

**Annotation.** This article discusses the role of books in the development of human spirituality and the promotion of reading among young people.

**Key words:** *human spirituality, literature, the power of artistic expression, reading.*

*“Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyot – so‘z san’ati, azaldan xalq qalbining ifodachisi, kuychisi, haqiqat vaadolat jarchisi bo‘lib qoladi”.*

**I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”**

Inson, avvalo, bu hayotda nima uchun yashashini anglab yetmog‘i lozim. Har bir insonga qaysidir yo‘ldan yurish imkonini beriladi, bu yo‘l ikki xil bo‘ladi: ezgulik va yovuzlik. Bu yo‘l hamma zamonda har xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Insonning qaysi yo‘ldan yurishi, birinchi o‘rinda atrofdagilarga, muhitga

va avvalo, inson ma’naviyatiga bog‘liq. Inson ruhiyatining, ma’naviyatining sayqali adabiyotdir.

Dunyoda insonlar bir-biriga o‘xshamaganlaridek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmaydi. Mana shunday nozik tovlanishlar, birligining so‘z bilan ifoda etilishi, bu adabiyotdir. O‘zbek adabiyoti tarixi inson ruhiy holatlarini aks ettiradigan durdona asarlarga boy. Ular yosh avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg‘ota oladi. Muhibbi ular faqat ma’rifiy bilimlarimizni oshirish bilan cheklanmaydi, badiiy didimizni va ma’naviy kamolotimizni oshirishga xizmat qiladi. Qadimdan adiblarimiz so‘z va tilning qudratiga alohida e’tibor berishgan. Masalan, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Sayfi Saroiy kabi ko‘plab ijodkorlarimiz ijodida badiiy so‘z qudrati yaqqol namoyon bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Yusuf Xos Hojib shoirlarni “so‘z teruvchilar” deb ta’riflasa, Alisher Navoiy esa ularni “ruh chamanining xushxon bulbullari” deb ta’riflaydi. Bunday ijodkorlarimizning asarlari, mana necha asrlar o‘tibdiki, har bir davrda o‘ziga xos ma’naviyat tarqatuvchi ziyo chashmasi bo‘lib kelmoqda. Ma’naviyat o‘zi nima?

Ma’naviyat faqat “ma’ni”, “ma’no” so‘zlarini emas, balki, insonning dunyoqarashi, iymon-e’tiqodi, vijdoni, ruhiyati, fikrlashi, umuman olganda butun borlig‘ini ifodalaydi. Masalan, oddiygina ona allasi, buni eshitmagan inson bo‘lmasa kerak. Birgina jumlasida onaning mehri, muhabbati, orzu maqsadlari, kelajakka bo‘lgan ishonchi mujassamlashadi. Bu ham ma’naviyatning go‘zal namunalaridan biri deb o‘ylayman.

Adabiyotni ilmiy va badiiy adabiyotga ajratar ekanmiz, ikkalasi ham birday, insonning aql-zakovatini va ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. V.G.Belinskiy ta’biri bilan aytganda, “Adabiyot butun xalqdan ma’rifat oladi, kamida shu xalqning ma’rifatli sinflaridan madad oladi. Adabiyot butun jamiyatning mulkidir”. Haqiqatdan ham, adabiyot butun jamiyatning mulki, masalan, biz Gyotening “Faust” asarini sevib o‘qisak, boshqa xalqlar esa A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarini ishtivoq bilan mutolaa qilishadi.

Ilmiy adabiyot olam hodisalari haqida bilim bersa, badiiy adabiyotda insonning borliqqa bo‘lgan munosabati, ruhiyati aks etadi. Adabiyotimizda shunday asarlar borki, biz ulardan ham ilmiy, ham badiiy ma’lumot olamiz. Bunday asarlardan biri bo‘lgan, Z.M.Boburning “Boburnoma” asarini aytishimiz mumkin. Bu asardan tilshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, biologiya kabi ko‘plab fanlarga oid ma’lumotlar olamiz. Masalan, Bobur tilshunos sifatida birinchi marotaba “adabiy til” tushunchasini “qalam” so‘zida ifodalaydi. U Andijon viloyatining tili adabiy tilga muvofiq ekanligini shunday ifodalaydi: “Eli turkdir. Shahar va bozorlarida turkiy bilmas kishi yo‘qdir. Elining lafzi qalam bila rostdir”.

O‘sha davrda Qobul atrofida lolaning 34 xil turi o‘sishini ham aytib o‘tadi.

Bobur yurtdan uzoqda chekkan iztiroblari, sarson-sargardonliklari, shoh va shoir sifatida o‘z ruhiyatida kechayotgan qarama-qarshi hislar va farzandining kelajagini o‘ylaydigan mas’uliyatli otaning kechinmalarida badiiyatning yorqin namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda, insonning ma’naviy kamolotida adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Ma’naviy kamolotga katta e’tiborning sababi, bizda inson va uning hayoti eng oliy o‘rinda turishidir.

Bugungi o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida ma’naviy kamolot, ya’ni iymon va e’tiqodlilik, halollik va poklik juda muhimdir. Bitta bolaning tarbiyasi nafaqat ota-onaga, balki, butun jamiyatga bog‘liqdir.

Tohir Malikning “Alvido bolalik” romanidagi Qamariddin obrazining jinoyat ko‘chasiga kirishiga nima sabab edi? U ham boshqa bolalar singari o‘qishni, oilasi bilan baxtli yashashni xohlardi. Hech kim o‘g‘ri, jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, uning bunday yo‘ldan yurishiga onaning farzand kelajagiga befarqligi, to‘g‘ri tarbiyaning yo‘qligi ham sabab bo‘ldi. Jamiyatdagi loqaydlik vaadolatsizlik uni jinoyatning uzun va ayanchli yo‘liga olib kirdi. Demak, insoniyatning ko‘rinmas dushmani loqaydlik ortidan, bo‘lajak olim yoki hunarmand, shoir yoki bog‘bon jinoyatchi degan nom oladi. Bu asar orqali yozuvchi o‘quvchini ogohlikka chaqiradi. Umuman, insonni e’tiborli bo‘lishga, bunday xatolarni hayotda takrorlamaslikka undaydi.

Adabiyot haqida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydi: “Bir so‘z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug‘ bir dargoh deb biladi”. Mana shu so‘zlardan ham adabiyot - yuksak ma’naviyat asosi ekanligini bilishimiz lozim.

Mamlakatning ma’naviy darajasini ko‘rsatadigan muhim ko‘rsatkichlardan biri o‘sha xalqning kitobxonligi bilan hamdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham shunday ta’kidlagandi: “Bugun kitob o‘qiyotgan bola, ertaga televizor ko‘rayotgan o‘nta bolani boshqarishi aniq”. Bugungi kunda yurtimizda kitobxonlik davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

2017-2018 yillardan buyon “Yosh kitobxon” tanlovi butun jamiyatni kitobxonlikka chorlamoqda. Tanlov g‘oliblari moddiy va ma’naviy tomondan taqdirlanib kelinmoqda. Qachonki, rag‘batlantirish yuqori bo‘lgan jamiyatda rivojlanish ham yuqori bo‘ladi.

Eng quvonarlisi shundaki, bugungi kunda “Eng yaxshi kitobxon oila” tanlovi ham yo‘lga qo‘yildi. Bu esa, umuman, oilalar o‘rtasida kitobxonlikni oshirishga, bunday oilalardan kelajakda yetuk insonlar yetishib chiqishga xizmat qiladi.

Ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minalash maqsadida 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab bakalavriat ta’limda “Ma’naviyatshunoslik”, magistratura ta’limida “Kasbiy ma’naviyat” fanlari ham o‘qitiladigan bo‘ldi.

Bu esa o‘z navbatida ta’lim va tarbiyaning birday olib borilishini, ular bir-biriga bog‘liq ekanligini ko‘rsatib beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, adabiyot qaysi davrda bo‘lishidan qat’iy nazar qadimgi davrda ham, Navoiy davrida ham, xonliklar davrida ham, hozirgi davrda ham, kelajakda ham ma’naviy kamolotning yuqori vositasi, inson qalbining tarjimoni, ta’lim va tarbiyaning asosi bo‘lib qolaveradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008 -yil.
2. Boqijon To‘xliyev. Adabiyot. –Toshkent: O‘qituvchi, 2005-yil.
3. Z.M.Bobur. Boburnoma. –Toshkent: O‘qituvch, 2008-yil.
4. Tohir Malik. Alvido bolalik. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019- yil.